

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI MINIMALLASHTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI MEXANIZMLARI

Hazratqulov Shahboz Boboqul o'gli

Qarshi davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Email: shahbozhazratqulov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-5600-6251>

Annotatsiya. *Mazkur tezisda xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiya jalb etishda yuzaga keladigan asosiy risklarni kamaytirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining (DXSh) o'rni va mexanizmlari yoritilgan. Xizmatlar bozoriga xos bo'lgan moliyaviy va institutsional risklarning davlat va xususiy sektor o'rtasida oqilona taqsimlanishi investitsion loyihalarning barqarorligini ta'minlashi asoslab berilgan. Tadqiqotda davlat kafolatlari, subsidiyalar, soliq imtiyozlari hamda shartnomaviy risk-taqsimot mexanizmlarining investitsion risklarni minimallashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Olingan xulosalar xizmat ko'rsatish sohasida investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Xizmat ko'rsatish sohasi, investitsiya, investitsion risk, davlat-xususiy sheriklik, risklarni minimallashtirish, investitsion muhit, davlat-xususiy sheriklik (DXSh)*

Kirish. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda davlatxususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. DXSh davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik bo'lib, u davlat xizmatlari sifati va infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan. Bu jarayonda xususiy sektor o'zining moliyaviy resurslari va boshqaruv tajribasini jalb etadi, bu esa xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni oshiradi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng muhim va tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya resurslarini samarali jalb etishga bog'liqdir. Biroq ushbu sohada investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy, institutsional va bozor risklari xususiy investorlar faolligini cheklovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sharoitda investitsion risklarni kamaytirish va investorlar uchun qulay muhit yaratishda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali risklarni oqilona taqsimlash, davlat kafolatlari va rag'batlantiruvchi choralarni qo'llash xizmat ko'rsatish sohasida investitsion loyihalarning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Mazkur tezisda xizmat ko'rsatish sohasida investitsion risklarni minimallashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining iqtisodiy mohiyati hamda uning asosiy mexanizmlari yoritiladi.

Asosiy qism. Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida risklar ko'pincha faqat moliyaviy omillar bilan emas, balki institutsional muhit, boshqaruv sifati va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ishonch darajasi bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, xususiy investorlar uchun eng katta noaniqlik davlat siyosatining barqarorligi, huquqiy majburiyatlarning bajarilishi va loyihalarni amalga oshirishdagi boshqaruv jarayonlarining shaffofligi bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, davlat va xususiy sektor hamkorligi investitsion risklarni kamaytirishda muhim institutsional vosita sifatida namoyon bo'ladi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining asosiy ustunligi risklarni tomonlar o'rtasida oqilona taqsimlash imkoniyatini yaratishidadir. Xususan, davlat uzoq muddatli siyosiy va huquqiy risklarni o'z zimmasiga olgan holda, xususiy sektorning moliyaviy va operatsion risklarni samarali boshqarish imkoniyatlarini ishga soladi. Bunda davlat tomonidan kafolatlar berilishi, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlarining joriy etilishi investorlar uchun ishonch omilini kuchaytiradi. Shu bilan birga, xususiy sektorning boshqaruv tajribasi, innovatsion yondashuvlari va bozor talablariga moslashuvchanligi investitsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Xizmat ko'rsatish sohasida DXSh loyihalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan inson omiliga, ya'ni loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ishonch, professional salohiyat va mas'uliyat darajasiga bog'liqdir. Samarali muloqot va shaffof qaror qabul qilish mexanizmlarining mavjudligi risklarning kuchayib ketishini oldini oladi. Shuningdek, loyiha boshqaruvida malakali kadrlarning ishtiroki va manfaatdor tomonlar o'rtasida aniq majburiyatlarning belgilanishi investitsion risklarni minimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli dunyoning ko'plab mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo'llanilib, infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. 1992-yilda ishga tushirilgan Private Finance Initiative (PFI) dasturi orqali Buyuk Britaniya DXShni keng qo'llab, 700 dan ortiq loyihani amalga oshirdi. Ushbu loyihalarining umumiy qiymati 57 mlrd. Funt sterlingni tashkil etdi. Natijada, mamlakatda yangi maktablar, kasalxonalar va transport infratuzilmasi obyektlari barpo etildi. Masalan, Londonning M25 aylanma yo'li DXSh modeli asosida kengaytirilib, transport oqimini sezilarli darajada yaxshiladi. Avstraliya DXSh orqali yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirib, transport va sog'liqni saqlash sohalarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Masalan, Sidney shahridagi "WestConnex" avtomagistrali loyihasi DXSh modeli asosida amalga oshirilib, umumiy qiymati 16,8 mlrd. Avstraliya dollarini tashkil etdi. Ushbu loyiha shahar transport tizimini yaxshilashga va tirbandliklarni kamaytirishga xizmat qildi. Kanada DXShni sog'liqni saqlash va transport sohalarida muvaffaqiyatli qo'llab, bir qator yirik loyihalarni amalga oshirdi. Masalan, Toronto shahridagi "Humber River" kasalxonasi DXSh modeli asosida qurilib, 1,75 mlrd. Kanada dollari miqdorida sarmoya jalb qilindi. Bu loyiha zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish va xizmat sifatini oshirishga imkon berdi. Turkiya DXSh orqali sog'liqni saqlash sohasida yirik loyihalarni amalga oshirdi. Masalan, Anqara shahridagi "Bilkent" shahar kasalxonasi

DXSh modeli asosida qurilib, umumiy qiymati 1,3 mlrd. Yevroni tashkil etdi. Bu loyiha 3 700 dan ortiq yotoq o'rne bilan jihozlangan bo'lib, mintaqadagi eng yirik tibbiyot markazlaridan biriga aylandi. Hindiston DXShni transport infratuzilmasini rivojlantirishda keng qo'llab, bir qator yirik loyihalarni amalga oshirdi. Masalan, Dehli shahridagi metro tizimi DXSh modeli asosida kengaytirilib, umumiy qiymati 2,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu loyiha shahar transport tizimini yaxshilash va atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirishga xizmat qildi. Mamlakatimizda 2024-yilda 8,9 mlrd. AQSh dollarlik 129 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari bitimlari imzolandi. 2030-yilgacha rejalashtirilgan 63 ta yirik infratuzilma loyihasining 39 tasida ishlar boshlangan. Jumladan, Farg'onada ko'p tarmoqli shifoxona, Samarqandda elektr tarmoqlari modernizatsiyasi, Toshkent va Toshkent viloyatida DXSh asosida maktablar qurish, Urganch aeroportini modernizatsiya qilish va kichik gidroenergetika loyihalari bo'yicha xalqaro tenderlar o'tkazildi. 2024-yilda kichik loyihalar qiymati 33 mln. AQSh dollarni tashkil etdi. Sohoni rivojlantirish uchun 30 mlrd. AQSh dollarlik DXSh loyihalariga ko'mak beruvchi markaz tashkil etilib, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2025-yilda DXSh loyihalari uchun 6,5 mlrd. AQSh dollarlik bitimlar imzolash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida yirik loyihalarni amalga oshirish, aeroportlarni xususiy boshqaruvga berish, elektron platforma ishga tushirish hamda III DXSh forumini o'tkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, energetika sohasida sezilarli natijalarga erishmoqda. 2026 yilgacha davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy qiymati 12 mlrd. AQSh dollari bo'lgan 29 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu qo'shimcha 71 mlrd. Kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi va yiliga 12 mlrd. Kub metr tabiiy gazni tejashga yordam beradi. Umuman olganda, davlat va xususiy sektor hamkorligi nafaqat moliyaviy risklarni kamaytirish, balki xizmat ko'rsatish sohasida barqaror investitsion muhitni shakllantirish, uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish va investitsion faoliyatda inson omilining ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion risklarni minimallashtirish jarayonida davlat va xususiy sektor hamkorligi samarali institutsional mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, risklarni tomonlar o'rtasida oqilona taqsimlash, davlat kafolatlari va rag'batlantiruvchi choralarni qo'llash investitsion loyihalarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hamkorlik mexanizmlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan inson omiliga, ya'ni boshqaruv sifati, professional kompetensiya va o'zaro ishonch darajasiga bog'liq ekanligi asoslandi. Mamlakatimizda DXShdan unumli foydalanish bo'yicha takomillashtirish uchun DXSh qonunchiligini xalqaro standartlarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, shaffoflikni ta'minlash va shartnomaviy huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash lozim. DXSh shartnomalarini investorlar uchun ko'proq himoya kafolatlari bilan ta'minlash kerak. DXSh doirasida soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish orqali mahalliy va xorijiy investorlar ishtirokini faollashtirish mumkin. Kredit va grant

dasturlari orqali mahalliy tadbirkorlarni DXSh loyihalarida qatnashishga undash lozim. DXSh loyihalarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi risklar aniq belgilanib, davlat tomonidan haddan tashqari moliyaviy majburiyatlar olinmasligi kerak. "Key Performance Indicators" (KPI) tizimini joriy etish orqali loyihalarning natijadorligi baholanib borishi lozim. Qayta tiklanuvchi energiya sohasida shamol va quyosh elektr stansiyalarini barpo etishda DXSh loyihalarini kengaytirish va yo'l infratuzilmasida pullik magistrallar tizimini rivojlantirish orqali davlat byudjetidan ajratiladigan xarajatlarni kamaytirish maqsadga muvofiq. DXSh loyihalari bo'yicha raqobatbardosh va shaffof tender tizimini joriy qilish hamda barcha jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatini ta'minlash lozim. Davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida umumiy ma'lumot platformasi yaratish orqali, loyihalarning natijadorligi va mablag'lar harakati to'g'risida hisobotlar jamoatchilikka ochiq bo'lishi kerak. Mamlakatimiz DXShning xalqaro tajribadan kelib chiqqan eng samarali modellarini tatbiq etib, iqtisodiy rivojlanishda sezilarli yutuqlarga erishishi mumkin. DXShdan foydalanish infratuzilma rivojlanishini tezlashtirib, davlat byudjeti yukini kamaytiradi va xizmatlar sifatini oshiradi. Soliq imtiyozlari, qonunchilikni takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish va xalqaro tajribani o'rganish orqali O'zbekiston DXShdan maksimal darajada foyda olishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik orqali zamonaviy infratuzilma, barqaror iqtisodiyot va raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti shakllanishi ta'minlanadi. Xulosa qilib aytganda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi tizimli hamkorlik xizmat ko'rsatish sohasida investitsiya jozibadorligini kuchaytirish, investitsion risklarni kamaytirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.10.2024 yildagi 720-son
3. Engel, E., Fischer, R., & Galetovic, A. (2014). Public-Private Partnerships: When and How. National Bureau of Economic Research (NBER). 36 b.
4. E. R. Yescombe – "Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance" (2007), 350 b.
5. National Audit Office (NAO) – "Managing PFI assets and services as contracts end" (2020). 58 b.
6. https://investment.infrastructure.gov.au/projects/048726-12nswnp?utm_source
7. <https://www.infrastructureontario.ca/en/what-we-do/projectssearch/humberriver-hospital/>
8. <https://www.platinonline.com/saglik/en-buyuk-kamu-ozel-isbirligi-ileyapilan-ankara-sehir-hastanesi-bilkent-acildi-963471>

9. <https://en.wikipedia.org/>

10. <https://gov.uz/oz/imv/news/view/32854>

